



USMON AZIMNING “BAXSHIYONA”LARIDA TABIAT TASVIRINING IFODA ETILISH USULLARI

Jumanova Shahnoza Ikromjonovna
Qo‘qon universiteti dosenti, v.b (PhD)

Annotatsiya. Maqolada Usmon Azimning “Baxshiyona” turkumidagi she’rlarida peyzajning o‘rni, shoir uslubining o‘ziga xos jihatlari, she’rlardagi tog‘ va dasht peyzaji, milliy peyzajlarning aks etishi masalalari haqida so‘z boradi. Tabiat tasvirining ramziy ta’sirini kuchaytirish uchun metafora, o‘xshatish yoki personifikatsiya yordamida tasvirlanishi, ushbu tasvirlar misollar orqali isbotlanishi o‘quvchining qiziqishini uyg‘otadi va adabiy manzarani boyitish uchun peyzaj qanday ishlatilishini aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Peyzaj, uslub, obraz, detal, mahorat, xalqona ohang, ritm, syujet, g‘oya, badiiy til, tabiat, hissiyot, metafora, romantizm, she’riyat.

Аннотация. В статье говорится о роли пейзажа в цикле стихотворений Усмана Азима “Бахшиена”, об особенностях стиля поэта, горно-степном пейзаже в стихотворениях, усилении символического воздействия образов природы. то, что он описан с помощью метафоры, сравнения или олицетворения, эти образы доказываются примерами, вызывают интерес читателя и позволяют определить, как пейзаж используется для обогащения литературной сцены.

Ключевые слова: Пейзаж, стиль, образ, деталь, мастерство, народная мелодия, ритм, сюжет, идея, художественный язык, природа, эмоция, метафора, романтизм, поэзия

Abstract. The article talks about the role of landscape in Usman Azim’s “bakhshiyona” series of poems, the specific aspects of the poet’s style, the mountain and steppe landscape in the poems, and the reflection of national landscapes. Strengthening the symbolic effect of nature images. that it is described using metaphor, simile or personification, these images are proved by examples, arouses the reader’s interest and allows to determine how the landscape is used to enrich the literary scene.

Keywords: Landscape, style, image, detail, skill, folk melody, rhythm, plot, idea, artistic language, nature, emotion, metaphor, romanticism, poetry.

“Adabiyot faqat haqiqiy iste’dodlarga tayanib, o‘zini o‘zi yangilab boradi” [1. 92]. “Zero, mumtoz so‘z san’atida so‘zning qadri baland, adabiyotning andishasi kuchli, shoirlik mas’uliyati katta bo‘lgan” [2. 59]. Hozirgi zamon o‘zbek she’riyatining iste’dodli vakili Usmon Azim ham so‘zning qadrini baland tutgan shoirlardan sanaladi. U peyzaj lirikasining eng go‘zal namunalarini yaratgan. Usmon Azimning deyarli har bir she’rida tabiatning bitta unsurini his qilish mumkin. Shu kichik detal tabiatning bir lahzalik tasvirini o‘quvchi ko‘z o‘ngiga keltiradi. Usmon Azim individual uslubiga xos jihatlardan bo‘lmish “Baxshiyona”larda ham biz tabiat



unsurlari obrazi va manzaralariga guvoh bo‘lamiz. Peyzajlar ko‘tarinki drammatizm bilan tasvirlanadi. Xalqona ohang va baxshiyona ruh - Usmon Azim she‘riyatining bosh mavzularini belgilaydi. Uning she‘rlaridagi milliylikka yo‘g‘rilgan, quruq tasvir va balandparvozklikdan yiroq bo‘lgan oddiylik, soddalik va samimiyat, og‘zaki ijodda yetakchilik qiluvchi xususiyatlar ana shu baxshiyona ruhning asoslaridir. Usmon Azimning bolalikda ko‘rgan-kechirganlari, Surxondaryodagi baxshilar bellashuvi, ko‘pkari, kurash singari urf-odatlar, bolalik xotiralari uning ijodkor sifatida shaxsiyatini, e‘tiqodi va dunyoqarashini shakllantirganligi tabiiy. Ijodkor bolaligida eshitganlari, turmush tashvishlaridan chekkan ozorlari, quvonch va qayg‘ulari, orzu-umidlari uning she‘rlarida turli-tuman badiiy vositalar ko‘rinishida namoyon bo‘laveradi. Shu ma‘noda Usmon Azim she‘riyatini kuzatadigan bo‘lsak, unda, eng avvalo, tabiat unsurlari bilan omixtalangan badiiy vositalarning qahramon ruhiyatidagi o‘zgarishlarni, insoniy mehrga tashnalik, do‘stlikni, ona yurtga muhabbat tuyg‘ularini ulug‘lashga xizmat qilganligini ko‘rish mumkin. Usmon Azim she‘rlarida “baxshi”, “do‘mbira”, “chavandoz”, “uloq”, “o‘tov”, “jayron”, “ohu”, “kiyik”, “qaldirg‘och”, “tulpor”, “dasht”, “kapalak”, “lolaqizg‘aldoq”, “yalpiz», “boychechak”, “yulduz”, “pari”, “dev”, “kabutar”, “do‘st”, “g‘anim” kabi o‘ziga xos obrazlar borki, ular she‘rdan she‘rga o‘tish jarayonida tobora mukammallashib, yangidan yangi qirralarini namoyon etib boradi. “U bahorni kutdi intizor, Yo‘llariga ko‘z tutdi ilhaq. Quyosh chiqsa, erib bitsa qor, To‘yib-to‘yib o‘ynardi chillak. (“Bolalikning so‘nggi kunlari”), “Bahor bilan mast bo‘lib, Kuylardik biz bolalar: «Boychechagim boylandi, Boychechagim boylandi...” (“Boychechak”), “Boysun qirlarida bir o‘zim kezdin, Kuz edi. Daralar tumanni quchgan. Avval eshitgandim. U mahal sezdim, Mening bir do‘stimning chirog‘i o‘chgan” (“Boysun qirlarida”), “Xavotir ichinda deding: «Men ketdim...» To‘xtading. Xo‘rsinding. Jo‘nading shitob. Kuzgi chorbog‘ aro yo‘qolding, etding, Atlas liboslarga belangan sarob” (“So‘nggi uchrashuv”) va boshqa yana shu kabi tasvirlarda Usmon Azimning tabiatni nihoyatda sinchi sifatida kuzatuvchi inson ekanligi ko‘zga tashlanadi. Usmon Azim ijodida tabiat bilan bevosita bog‘langan, xalqchillikka yo‘g‘rilgan bunday misollarni juda ko‘plab keltirishimiz mumkin. Biroq shuni alohida qayd etish lozimki, Usmon Azim tomonidan tanlangan, xalq og‘zaki ijodi namunalari tiliga xos bo‘lgan va uning she‘riy asarlarida obraz darajasiga ko‘tarilgan detallar har gal o‘zlarining yangi-yangi nozik qirralari va fikr ifodalash imkoniyatlari bilan namoyon bo‘ladi.



Xalq og‘zaki ijodidan ta’sirlanish har bir ijodkorda uchraydigan hodisa. Zeroki, ijodkorning bolalikda eshitgan ertak-matallari, xalq maqollari, naql va rivoyatlari adabiy zahirasini boyitishga xizmat qiladi.

Usmon Azim o‘zbek tilining boy, go‘zal, ifoda imkoniyatlari cheksiz ekanligini o‘z she’riyati orqali to‘la namoyon eta olgan. “Shoir she’riyatida xalq adabiy syujetlaridan foydalanish badiiy tamoyil darajasiga ko‘tarilgan”[3. 116-118].

Usmon Azimning “Baxshiyona”lar turkumi alohida janr xususiyatlariga ega. Bu masala, albatta, biror tadqiqot uchun asos bo‘ladi oladi. Turkum xalq dostonlarining ritmi, ohangi va syujetlarini yodga soladi. Baxshiyonalarning markazida – Elbek baxshi obrazi turadi. Undan tashqari uning shogirdi Elomon, sevgilisi Oytuman, Oqbotir, Qorabotir obrazlari ham bor. Baxshiyonalarning strukturasi ham dostonlarga o‘xshaydi: har bir baxshiyonaning prologida nasriy usulda qisqa izoh keltiriladi. Keyin voqelikka mos she’r keladi. Dostonlarda “shundaning ...ga qarab aytib turgan joyi ekan”, degan qolip uchraydi. Usmon Azim baxshiyonalariga eng katta ta’sir ko‘rsatgan doston bu, shubhasiz, “Alpomish” dostonidir. Usmon Azim baxshiyonalarida eng ko‘p “tog‘” va “dasht” peyzajidan foydalanadi.

Tuya boqdim, tovonlarim g‘ijja tikan,

Sen kelmasang Asqartog‘ ham cho‘kadigan [4. 326].

Ushbu she’riy parcha “Alpomish” dostonidagi motivlardan foydalangan holda o‘z g‘oyasini ifoda etadi. Qaldirg‘ochoyim tuya boqib turib, Alpomishning Qo‘ng‘irotga qaytmaganidan kuyib, ichikib, shu she’rni aytadi. Shoir Alpomishning qaytmasligi butun yurt uchun og‘ir yuk bo‘lishini “Asqartog‘” (tog‘ peyzaji)ni cho‘kishiga o‘xshatadi. She’rni esa “har bir elga bir er yigit kerak ekan”, deya xulosalaydi.

Yana bir baxshiyonada Elbek baxshidan “chiroyli nima”, deb so‘raganlarida, baxshining bergan javobi bayon qilinadi. Javoblar juda sodda va o‘ynoqi tilda bitilgan bo‘lib, tabiat va inson parallel qiyoslanadi.

Osmonda yulduzlar chiroyli,

Dunyoda kunduzlar chiroyli,

...Bahor seli bilan chiroyli,

Yigit eli bilan chiroyli.

Dehqon dala bilan chiroyli,

Ayol bola bilan chiroyli. [5. 327].



Elbek baxshidan so‘ralgan keyingi “yomon nima”, degan savolga baxshining javobi yana xuddi shu usulda davom etadi. Elbek baxshi tilidan “yulduzi yo‘q osmon”, “kunduzi yo‘q jahon”, “bahorsiz kelgan sel”, “dalasiz dehqon” yomonligi aytiladi. She‘rlari mantiqli va obrazli ifodalarga boy shoirning o‘zi ham ayni damda donishmand, hayotiy tajribalarga ega bo‘lgan faylasuf sifatida namoyon bo‘ladi. Uning she‘riy misralarida falsafiy xulosalar qaymog‘i bo‘lgan fikrlar ko‘p uchraydi.

Toshdaymas, tog‘day bo‘lgin,
Qoyangda qush uyg‘onsin.
Eling senga qoqilmasin,
Eling senga suyansin [6. 337].

Baxshiyonalarda asosiy g‘oya – yurtni ardoqlash, mardlikni ulug‘lash, er yigitning tarbiyasi hamda dunyoning makkor o‘yinlarini anglashga da‘vatdir. Usmon Azim ijodida qo‘llanilgan badiiy vositalar shoirning xalq tilidagi mavjud tasvir vositalaridan, uning beqiyos go‘zal tilining yashirin imkoniyatlaridan juda o‘rinli foydalanganini, shoirning o‘ziga xos individual uslubi xalqona ekanini namoyon etadi. Bu holat Usmon Azimning xalqimizni faxri bo‘lgan Alpomish obrazini yaratishga bo‘lgan harakatlarida, tanlagan badiiy vositalarida yaqqol ko‘rinadi:

Bir ninachi — sarxushu dovdir —
Jirkanmasdan qo‘ndi qo‘limga...
Titroq etdi jonimga dovr,
Nogoh hayron boqdim o‘limga.
Va eshitdim, erning tagida
Dupur-dupur — elib kelar ot.
Men — Alpomish behol yotibman,
Shoshih kelar Qorajon — Hayot! [6. 94].

Baxshiyonalarda Usmon Azimning “Alpomish” dostoniga bo‘lgan cheksiz muhabbati ufurib turadi. Doston motivlari asosida yozilgan baxshiyonalarda Alpomishning qaytishi, Barchinning sadoqati, Qaldirg‘ochning singillik mehri aks etadi. Bu motivlar orqali shoir millatga xos mehr-oqibatni, odamiylikni o‘quvchiga eslatadi.

Og‘irdir, yor, sensiz pallalar,
Mudrasa kechasi dalalar.
Beshikda tamshangan bolangga



Aytayin qanaqa allalar? [6. 332].

Ushbu she'riy parchada Alpomishning Qalmoqqa jo'nashini bilgan Barchinning Alpomishga qarata aytgan so'zlarini ko'ramiz. Qornida uch oylik bolasi bor Barchin Alpomishning ketayotganidan iztirob chekadi. "Agar olti oyda qaytmasang, bolangga nima deb aytay, sultonim", deb so'raydi. Alpomish esa farzandini qanday tarbiya qilmoqchi bo'lsa, diliga tukkan shu niyatlarini Barchinga omonat gap qilib aytadi. Ushbu parchada "tunda dalaning mudrashi" va "yorsizlik, hijronni" bir-biriga qiyoslab, Barchinning ruhiy iztiroblarini, kechinmalarini bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiladi. Usmon Azim o'quvchining lirik qahramon kayfiyatini yaxshiroq ilg'ashi uchun peyzajlardan unumli foydalanadi: "oysiz-a tunlar qarodir", "saraton kelganga o'xshadi, tomoqlarim-a qo'rqshadi", "qizarib oylar boqdi", "anov tog'dir ko'kni tutgan, gul kelar deb hutni kutgan", "yodimga tushsang tog' oshib, umrim qochdi-yo, Gulkelar", "Sarqamishning ko'lida o'sdi qamish, qamishining barglari o'n bir qarich" va shu kabi yuzlab misollarni keltirish mumkin.

Usmon Azim inson va tabiatning mangu uyg'unligi muammosini yurt taqdiri, millat taqdiri bilan bog'laydi. Baxshiyona she'rlarda ushbu xususiyat bo'rtib, ko'rinib turadi. "Mohiyatga ko'ra g'oya ko'pincha tabiatda namoyon bo'ladi" [1.127]. Shoir tabiatdan kutilmagan manbalar, shaffof tuyg'ular topadi. Shu bois peyzaj va she'riyat qadimdan to hozirga qadar egizak tushuncha sifatida talqin etiladi. Usmon Azim tabiat timsolida inson dunyosining murakkab nuqtalarini tadqiq etadi.

Usmon Azim shunchaki aytmaydi. Balki, har bir so'zni harakatga keltiradi. O'z fikrini ma'lum ramz va obrazlar bilan ifoda etadi. Ushbu she'riy parchada ham shoir "tog'lardan balandroq" boshini yorning sog'inchi "qorlarga belaganini" aytar ekan, "tog'", "shamol", "qor" kabi peyzaj unsurlarini o'xshatish vositasi sifatida ishlatadi. Bu esa she'rdagi manzarani aniqroq tasavvur qilish va lirik qahramon kayfiyatini yaxshiroq his qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki "poëziya tavsiflar bilan emas, balki, kartina va obrazlar bilan so'zlashi kerak; poëziya buyumni tavsif etmaydi va undan nusxa ko'chirmaydi, balki, uni yaratadi" [1. 213]. Ushbu yaratilgan obraz esa shoir ilgari surayotgan ma'lum bir g'oyani hamda shoirning dunyoqarashini ifoda qilishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Usmon Azimning baxshiyona she'rlarida "tog'" va "dasht" peyzajlari etakchilik qiladi. Ushbu ikki peyzaj unsuri shoir she'riyatidagi xalqona ohang va baxshiyona ruhni, qolaversa, baxshiyona she'rlardagi



bosh mavzularni belgilab beradi. Uning she'rlaridagi milliylikka yo'g'rilgan, quruq tasvir va balandparvozlilikdan yiroq bo'lgan oddiylik, soddalik va samimiyat, og'zaki ijodda etakchilik qiluvchi xususiyatlar ana shu baxshiyona ruhning asoslaridir.

Bugungi Usmon Azim bundan o'n yil yoki o'n besh yil avvalgi Usmon Azim emas. Hamma iste'dodli shoirlarga o'xshab Usmon Azim ham kitobdan kitobga fikran boyib, ruhan yuksaldi. She'r yozmoq unga kasbmas – qismat...[4. 178].

Adabiyotlar:

1. Belinskiy G. Tanlangan asarlar. - Toshkent, 1955.
2. Gegel G.F. Estetika. v.4t. - Moskva, 1968.
3. Haqqul I. She'riyat – ruhiy munosabat. - T.: Adabiyot va san'at, 1989.
4. Haqqul I. Hayot, adabiyot va abadiyat. - Toshkent: Tafakkur, 2019.
5. Suvonova J. Hozirgi o'zbek she'riyatida badiiy izlanishlar (Usmon Azim ijodi misolida). Fil.fan.nom.dis., - Samarqand, 2000.
6. Usmon Azim. "Tanlangan asarlar" 1- jild. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2016.
7. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
8. J Shahnoza.(2023) Usmon Azim she'riyatida metaforalarning o'rni. NamDu ilmiy axborotnomasi 11, 292-298
9. J Shahnoza. Milliylikni ifodalashda peyzajning o'rni.(2023). Turkiy xalqlar adabiyotia dabiyo aloqalar, adabiy ta'sir va va tarjima, 600-603
10. J Shahnoza.(2022). Usmon Azim balladalarida tabiat tasvir. O'zbek tili va adabiyoti 3, 51-55
11. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O'RNI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.
12. Ikromjonovna, J. S., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA PISA TESTI NATIJALARI VA BOSHLANG 'ICH TA'LIM O 'QUVCHILARINI BU TESTGA TAYYORLASH ISTIQBOLLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 159-162.
13. O Maxliyoxon, J Shaxnozaxon. (2024). [DRAMA AND ARTISTIC READING IN PRIMARY GRADES: Study guide](#). ISBN-13 : 979-8324468415 1, 142